

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MOLİYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATLARI

Temurjon Kalandarovich Komilov

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha va maktab ta'limi sifatini oshirishda moliyalashtirish mexanizmlarini o'rganishning nazariy jihatlari yoritib berilgan. Bundan tashqari xalqaro tajribalar va tahlillar ham keng ma'noda keltirilgan.

Аннотация: В данной научной статье освещены теоретические аспекты изучения механизмов финансирования для повышения качества дошкольного и школьного образования. Кроме того, широко представлены международный опыт и анализы.

Annotation: This scientific article highlights the theoretical aspects of studying financing mechanisms to improve the quality of preschool and school education. Additionally, international experiences and analyses are broadly presented.

Ta'lim odamlar va jamiyatlarga ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltirgani uchun kelajakka sarmoya, deb qaraladi. Shu bilan birga, ta'limni moliyalashtirish masalasi barcha davlatlarda eng dolzarb va munozarali masaladir. Odatda ta'limga sarflanadigan xarajatlar asosan davlat budjetlaridan kelib chiqqanligi uchun ta'lim moliyasi mamlakat boyligi bilan bog'liq holda o'lchanadi va amalga oshiriladi.

Ta'limni moliyalashtirish bir qancha o'zgaruvchan omillarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi: maktabga qabul ko'rsatkichlari, o'qituvchilarning ish haqi, o'quv materiallari va jihozlarining narxi, o'qitish vaqti, sinflar soni va o'quvchilarning o'qituvchilarga nisbati va boshqalar. Bundan tashqari majburiy ta'lim ko'rsatkichlari asosan demografik o'sish kabi tashqi omillarga ham bog'liq. Aholi sonining ortishi bilan ta'lim xarajatlari ham tabiiy o'sish xususiyatiga ega bo'ladi. Shunday bo'lsada, davlatlar ta'lim siyosatida turli ustuvorliklarga ega. Masalan, ba'zi OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) mamlakatlari oliy ta'limga katta imkoniyat bersa, boshqalari esa uch yoki to'rt yoshli bolalar uchun ko'proq sarmoya kiritadi.¹⁰⁰

Shu bilan birgalikda, ta'lim siyosatini ishlab chiqaruvchilar ta'lim xizmatlarida sifatni oshirish muhimligini ta'lim xarajatlari bilan muvozanatlashi kerak. Ya'ni, yuqori sifatli ta'limga bo'lgan talab, shuningdek, davlat xarajatlari va umumiy soliq yukiga qo'yiladigan boshqa talablarni inobatga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Ta'lim xarajatlari yuz foiz ta'lim sifatini kafolatlamasada, ta'limni moliyalashtirish yo'llari va darajasi ko'p jihatlari bilan ta'lim sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Boshlang'ich ta'limdan oliy ta'limgacha bo'lgan ta'lim muassasalarida bir o'quvchiga to'g'ri keladigan yillik xarajatlar har bir o'quvchiga sarflangan investitsiyalarning baholashini ta'minlaydi. 2018 yilda OECD mamlakatlarida boshlang'ich ta'limdan oliy

¹⁰⁰ OECD: Education at a Glance 2021: OECD Indicators, OECD Publishing, Paris, 2021, <https://doi.org/10.1787/b35a14e5-en>.

ta'limgacha bo'lgan bir o'quvchi uchun o'rtacha yillik xarajatlar deyarli 11 700 AQSh dollarini tashkil etdi. Ammo bu o'rtacha ko'rsatkich OECD hamkor mamlakatlarida turlichadir. Masalan, OECD bo'yicha eng kam ko'rsatkichga ega Kolumbiyada bir o'quvchiga yillik xarajat taxminan 3100 AQSh dollarini tashkil qilsa, Norvegiya va Qo'shma Shtatlarda bu taxminan 18000 AQSh dollarini, eng yuqori ko'rsatkich Luksemburgda 24 900 AQSh dollaridan ortiqni tashkil etdi.¹⁰¹

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, o'quvchi boshiga eng ko'p xarajat qiladigan davlatlar o'qituvchilariga ham eng ko'p investitsiya kiritgan mamlakatlar hisoblanadi. Dunyo bo'ylab eng yaxshi o'qituvchi maoshlari o'quvchi boshiga eng ko'p xarajat qiluvchi mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Bu o'z navbatida, pedagogik faoliyatni har jihatdan rivojlanishi va takomillashishini bildiradi.

Boshqa tomondan ko'plab tadqiqotlarda o'quvchi boshiga xarajatlarning miqdori yoki davlat yalpi ichki mahsulotida (YaIM) ta'lim xarajatlarining ulushi miqdorining ta'lim sifatiga ta'siri borasida ko'plab munozara va tortishuvlar mavjuddir.

Jumladan, Amerikalik olim E. Xanushek va A. Lindset AQShda 1960 yildan (inflatsiyalarni qo'shib hisobga olganda) 2009 yilgacha bir o'quvchiga to'g'ri keladigan xarajatlar deyarli to'rt barobar ko'payganiga qaramay, ta'lim yutuqlari bir xil ko'rinishda saqlanib qolganini ta'kidlaydi va moliyalashtirishni ta'lim natijalariga ko'ra amalga oshirilishi kerakligini ilgari suradi.¹⁰²

Ushbu qarashga yaqin bir fikrni rossiyalik tadqiqotchilardan ko'rishimiz mumkin. Masalan, tadqiqotchilar Ye. Saviskaya va D. Chertykovsevalar o'z ilmiy maqolasida o'quvchilarning yutuq va muvaffaqiyatida ta'lim xarajatlarining YaIMga nisbati, ta'lim xarajatlarining umumiy davlat xarajatlari nisbatiga va o'qituvchilarning oylik maoshining mamlakat o'rtacha ish haqi darajasidan yuqori yoki pastligiga bog'liq emasligini ta'kidlaydi.¹⁰³ Tadqiqotchilar ta'limni moliyalashtirish va ta'lim xarajatlarini tahlil qilib, Rossiya va boshqa davlatlarning PISA va TIMSS xalqaro test natijalarini taqqoslaydi. Tadqiqotchilar ta'lim sifatini tushub ketishida ko'pchilik rossiyaliklar ta'kidlayotganidek ta'lim xarajatlarini davlat xarajatlari ulushida va o'qituvchilarning oylik maoshining mamlakat o'rtacha ish haqidan pastligida emas, balki tajribali (malakali) o'qituvchilar va ularning o'quv yuklamalari hamda o'quvchilarning mustaqil ishlashi va o'quvchi oilasining xarakteristikasiga bog'liqligini ilgari suradi. Tadqiqotchilarning argumenti AQShda ta'lim xarajatlari YaIMga nisbatan Rossiyalikiga qaraganda (4,6 %ga nisbatan 1,8%) 5 barobar ko'p bo'lsada, TIMSS-1999 xalqaro test natijalariga ko'ra matematika bo'yicha rossiyalik va amerikalik maktab o'quvchilarining o'rtacha ballari deyarli bir xil bo'lgani, 2007 va 2011 test natijalarida ham matematika va tabiiy fanlar bo'yicha ko'rsatkichlar sezilarli darajada o'zgarmaganini ta'kidlaydi.

Tadqiqotchilar ekonometrik tahlil uchun TIMSS va PISAning test natijalari, ta'limni moliyalashtirishning uchta indikatorini (YaIMga nisbatan ta'limni moliyalashtirish foizi, davlat xarajatlarida o'rta ta'limning ulushi, bir o'quvchiga sarflanadigan xarajatlarning

¹⁰¹ OECD: Education at a Glance 2021: OECD Indicators, OECD Publishing, Paris, 2021, p. 232.

¹⁰² Hanushek Eric A., Lindseth Alfred A. Performance-Based Funding. Defining Ideas, 2009, No1, pp. 101-105.

¹⁰³ Савицкая Е., Чертыковцева Д., Финансирование и качество школьного образования: эконометрический подход. Вопросы экономики. 2013. № 4. – С. 112-129.

o'rtacha ko'rsatkichi) o'qituvchilarning o'rtacha oylik ish haqi va moliyaviy bo'lmagan bir o'qituvchiga qancha o'quvchining to'g'ri kelishini o'zida aks etgan quyidagi formuladan foydalanadi:¹⁰⁴

$$Y_i = \alpha + \beta I^k_i + \varepsilon_i$$

bu yerada: Y_i – i mamlakat uchun o'rtacha TIMSS yoki PISA balli; I^k_i – i uchun ta'limni moliyalashtirishning uch indikatori va nomoliyaviy bo'lgan o'qituvchi boshiga o'quvchilarning o'rtacha soni, bunda $k = 1,4$

Tadqiqotchilarning olib borgan o'rganishlarining natijasida davlat xarajatlarning koeffitsienti barcha regressiyalar uchun muhim bo'lishi bilan birga, ularning qiymati 0,01 dan oshmaydi. Ya'ni, davlatning har bir maktab o'quvchisi uchun har yili xarajatni 100 dollarga ko'tarilishi mamlakatning xalqaro testlardagi ballini atigi 0,5-1 ballga oshiradi. Ushbu yaxshilanish butun tanlama bo'yicha ballarning standart og'ishi o'rtacha 1,23%ni tashkil qiladi va mamlakat reytingini sezilarli darajada yaxshilay olmaydi. Shunday qilib, davlat mablag'lari miqdorining o'zi maktab ta'lim sifatiga unchalik ta'sir qilmaydi, degan farazni tasdiqlaydi. Tadqiqotchilarning isbotlashicha, o'quvchilar sonining o'qituvchilar soniga nisbati ta'lim sifatiga sezilarli ta'sir qiladi. TIMSS-2003 va TIMSS-2007 test natijalarini tahlil qilgan holda, o'qituvchining o'quv yuklamasi atigi bir nafar qo'shimcha o'quvchiga oshishi mamlakatning ushbu xalqaro testlarda (matematika va tabiiy fanlar bo'yicha) o'z natijasini 5-6 ball yo'qotishiga olib keladi, bu standart og'ishning o'rtacha 8,26 foizini tashkil etadi.

Xulosa

O'quvchilarning muvaffaqiyati uchun mablag' (pul) muhimdir. O'sib borayotgan dalillar to'plami shuni ko'rsatadiki, ta'limga xarajatlarning ko'payishi o'quvchilarning yaxshi natijalariga olib keladi. Hukumatlar o'zlarining davlat maktablariga sarmoya kiritisa va maktabni moliyalashtirishning adolatli tizimini yaratsa, o'quvchilarning muvaffaqiyat darajasi oshadi va kam ta'minlangan o'quvchilar uchun ijobiy ta'siri yanada ko'proq bo'ladi. Viloyatlar, tumanlar va maktablar o'z pullarini yuqori sifatli yerta bolalik ta'lim dasturlariga ko'proq va oqilona yo'naltirishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-637-son. Toshkent, 2020 yil 23 sentabr.
2. Belexova G.V., Kalachikova O.N. «Vek jivi – vek uchis»: konseptualnyy diskurs o finansovoy gramotnosti naseleniya. Ekonomicheskie i sotsialnye peremennyye: fakty, tendentsii, prognoz. Tom II, № 6, 2018.
3. Dzyuba Nataliya, Sereznyy dar: poluchili selevoe finansirovanie. Jurnal Nalogi & buxuchet, aprel 2015, № 35.

¹⁰⁴ Савицкая Е., Чертыковцева Д., ўша манба.

4. Zaxidova Sh.Sh. Oliy ta'lim xizmatlari bozorining amal qilish mexanizmi samaradorligini oshirish (O'zbekiston materiallari asosida). I.f.n. dis. avtoreferati. – T.: O'zMU, 2012. 26 b.
5. Ilhom Jo'raev, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati. "Ma'rifat", 13 / 12 / 2017. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/13-12-17.htm>